


**Yondosh mavzu:**  
opera.

Tenglik, tenglama,  
noma'lum.



1. Tengliklar to'g'ri bo'lishi uchun katakchalarda qaysi sonlar turishi kerak?

$$533 \cdot \square = 533$$

$$\square \cdot 1 = 408$$

$$6 \cdot \square = 0$$

$$273 + \square = 273$$

$$\square + 0 = 146$$

$$\square - 0 = 540$$

$$396 : \square = 396$$

$$\square : 1 = 928$$

$$\square \cdot 347 = 0$$

2. Noma'lum komponentlar qanday topilishini eslang. Tenglamalarning ildizini, ya'ni tenglamalarni to'g'ri tenglikka aylantiradigan sonlarni toping. Javoblariningizni og'zaki tekshirib ko'ring.

$$x + 200 = 800$$

$$n \cdot 3 = 27$$

$$650 - y = 250$$

$$m : 5 = 7$$

$$z - 270 = 230$$

$$40 : t = 5$$



**Sodda tenglama – bu chap tomonida bitta amal turgan tenglama.**

$$x + 45 = 90$$

$$y \cdot 3 = 93$$

3. Tenglamalarni tekshirishlar bilan yeching.

$$x + 23\ 449 = 62\ 383$$

$$n \cdot 12 = 144$$

$$64\ 000 : t = 80$$

4. Masalalarga doir tenglamalar tuzing.

a) Spektaklda 74 nafar – 36 nafar erkak va  $x$  nafar ayol qo'shiqchi qatnashdi. Spektaklda necha nafar ayol qo'shiqchi ishtirok etgan?

b) Ikki qismli spektakl 2 h 10 min davom etadi. Birinchi qism  $n$  minut, ikkinchisi 55 minut davom etgan bo'lsa, birinchi qism necha minut davom etgan?

## 103. Sodda tenglamalar



5. “Bo‘ri va yetti uloqcha” operasi uchun parterga 18 ta chipta, amfiteatrغا esa 38 ta chipta sotildi. Parterda 45 ta o‘rinli 10 ta qator, amfiteatrda esa 22 ta o‘rinli 11 ta qator bor bo‘lsa, yana nechta bo‘sh o‘rin qolgan?



6. Amallar tartibiga rioya qilgan holda hisoblang. Italiany tilida ish, mehnat, insho, asar ma’nosini bildiruvchi so‘zni toping.

$$2\ 825 : 5 - 3 \cdot (64\ 069 - 63\ 925) + 2\ 741$$

A 2 874

I 3 056

O 144

P 565

E 432

L 290

N 146

R 133



7. Qoldiqli bo‘lishlarni bajaring. Bu yerda qaysi ifoda ortiqcha? Nima uchun?

$$567 : 6$$

$$13\ 829 : 3$$

$$279 : 3$$

$$260 : 3$$



8. Ushu  $144 : 16 - 4 \cdot 3$  ifodada qavslar turlicha qo‘yilsa, necha xil javob chiqishi mumkin?



9. Hisoblang va javoblarni o’sish tartibida joylashtiring.

Operaning mazmunini qisqacha aytib berish qanday ataladi?

ET  $12\ 831 - 1\ 148 \cdot 5$

TO  $9\ 967 - (15 \cdot 3 + 64 : 16)$

LI  $672 + 12 \cdot (7 + 29)$

BR  $3\ 345 + (819 - 720) : 11$



10. Opera spektaklida ayollar uchun 198 ta ko‘ylak tikildi. Bu erkaklar uchun tikilgan ko‘ylaklardan ikki marta ko‘p. Bu spektakl uchun jami nechta ko‘ylak tikilgan?